

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Sam DU rektori



prof

R.I. Xalmuradov
R.I. Xalmuradov

_____ **2022 yil**

**10.00.01 – O'ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS IXTISOSLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

SAMARQAND-2022 y.

ANNOTATSIYA:

Dastur 10.00.01- O'zbek tili ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70230101 – lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligining 2020 yilda tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

ТУЗУВЧИЛАР:

Pardayev A.B.

SamDU O'zbek tilshunoslogi kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori

Karimov S.A.

SamDU O'zbek tilshunoslogi kafedrası
professori, filologiya fanlari doktori

Mahmadiyev Sh.S.

SamDU O'zbek tilshunoslogi kafedrası
mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016-yil 13 maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining nufuzini yanada yuksaltirish, o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqish, globallashtirish sharoitida o'zbek tilidan foydalanish ko'lamini kengaytirish va o'zbek tili ixtisosligi bo'yicha yangi avlod kadrlarini tayyorlash, o'zbek tili va adabiyoti muammolarini tadqiq etishni yangi bosqichga ko'tarish vazifasi qo'yilgan. Har bir fanning o'qitish, o'rganish va tadqiq etish metodologiyasi bo'lishi ta'kidlangan.

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligining vazifasi o'zbek tilini chuqur ilmiy tadqiq qilish, tilning barcha sathlari bo'yicha tadqiqotlar yaratish, zamonaviy tilshunoslik paradigmalari asosida ona tilimizning milliy xususiyatlarini yoritish va uning nufuzini oshirishdan iborat.

10.00.01 – O'zbek tili ixtisosligi b'uyicha tayanч докторантурага кирувчи даъвогарлар учун 70230101 – Лингвистика (ўзбек тили) magistratura мутахассислигининг 2020 йилда тасдиқланган ўқув режасига асосан 5 та ихтисослик фанлари б'уйича: "Pragmalingvistika", "Psixolingvistika", "Lingvokulturologiya", "Matn tilshunosligi" va "Nazariy tilshunoslik masalalari" фанларидан саволлар базаси шакллантирилган.

Бу фанлар ўз негизда қамраб олинган маълумотлар қуйида батафсил келтирилган.

PRAGMALINGVISTIKA

fani bo'yicha:

Pragmalingvistika fanining predmeti va tadqiqot obyekti. Axborot uzatish va qabul qilish. Kommunikativ harakatlar. Kommunikativ- pragmatik yo'nalishning shakllanishi. Tilning ichki shakli. Pragmalingvistik tahlil. Pragmalingvistik tadqiqot. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida. Pragmalingvistikaning metodologik negizi. Pragmalingvistikaning predmeti. Semantik va pragmatik pressupozitsiya. Pragmatik pressupozitsiyaning matnga xosligi. Eksplikatura. Implikatura. Sotsiopragmatik tahlil asoslari. Hurmat tamoyili muloqot kechishini ta'minlovchi asosiy manba. J. Lichning hurmat tamoilining qoidalari xususida. Sotsiopragmatikada hurmat kategoriyasi. Muloqot sistemasi. Muloqot strukturasi. Kommunikativ mazmun. Informativ mazmun. YAxlitlik va tugallanganlik. Uning geterogen sistema ekanligi. Geterogen sistema har doim jonli sistema sifatida amal qilishi. Shaxs unsuri. Vaziyat unsuri. Lisoniy unsur. Sistemadagi unsurlarning muvofiqlashuvi. Matn. Matnning lisoniy-nutqiy sistema ekanligi. Diskurs lisoniy, shaxsiy va vaziyat omili muvofiqlashgan sistema ekanligi. Diskursning turlari. Diskursning tasnifi. Diskursiv tahlil tarixi. Nutqiy vaziyat. Qulay vaziyat. Noqulay vaziyat. Erkin vaziyat. Rasmiy vaziyat. Vaziyat va lison. Vaziyat va nutq. Nutq samarasi va vaziyat muvofiqligi. Lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Vaziyat omilining

nutqiy omillarga hamkorligi. Lisoniy umumiy ma'noning nutqiy xoslanishida lisoniy va noilsoniy omillar hamkorligi. Hamkorlikda muvofiqlashuv. Omilning ustuvorlashuvi va pasayishi. Shaxs va lison. Shaxs va nutq. Shaxs va vaziyat. Shaxs va shaxs. Lisoniy kompetensiya. Madaniy kompetensiya. Pragmatik kompetensiya. Kommunikatsiya. Kommunikativ intensiya. Intensiya ifodasi. Intensiya mo'ljali. Intensiyaning ifodalovchi fe'llarning kuchi va intensivligiga ko'ra turlari. Lokutiv fe'llar. Prelokutiv fe'llar. Illokutiv fe'llar. Ona tili ta'limining bosh maqsadi. Ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligi vazifasi. Til qurilishi va til ta'limi. Til imkoniyati va til ta'limi. Til faoliyat samarasini ta'minlovchi kuch sifatida. Gapning kommunikativ kategoriyasi. Aktual bo'linish.

PSIXOLINGVISTIKA

fani bo'yicha:

Psixolingvistikaning obyekti va predmeti. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili. Tushunchaviy-terminologik apparati. Psixolingvistika psixologik fan sifatida. Psixolingvistika va tilshunoslik. Individ va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning psixologik va lingvistik manbalari. Dastlabki psixolingvistik g'oyalar. V.Fon Gumboldning antinomiya. "Yosh grammatikachilar" nazariyasi: individual psixologiya. "Yosh grammatikachilar" nazariyasining inqirozi. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi. L.S.Vigotskiy - psixolingvistikaning asoschilaridan biri. Ichki nutq haqidagi ta'limot. Charlz Osgudning kommunikatsiya modeli. Inson kommunikatsiyasiga lingvistikadan yondashish. Inson kommunikatsiyasiga psixologiyadan yondashish. Inson kommunikatsiyasiga informatsiya nazariyasidan yondashish. Inson kommunikatsiyasining sxemasi. Bixeviorizm, neobixeviorizm. Stimul (S) va reaksiya (R). Assotsiativ munosabatlar. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi. Transformatsion modelning birinchi varianti, uning umumiy strukturasi va xususiyatlari. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati. Transformatsion modelning ikkinchi varianti. Undagi "botiniy" struktura va "zohiriy" struktura tushunchalari. N. Xomskiyning *competence* (lisoniy qobiliyat) va *performance* (lisoniy faollik) tushunchalari. Jorj Miller ta'limotining asosiy xususiyatlari. J. Millerning kommunikatsiya modeli. "Nutqiy faoliyat" tushunchasi. Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. Nutqiy faoliyat turlari. Verbal va noverbal tafakkur. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati. Nutqiy faoliyatda til va nutqning funksiyalari. Nutq yaratilishining psixolingvistik talqini. Nutq – faoliyat. Faoliyatning etakchi va yordamchi turlari. L.S.Vigotskiy modeli. Tafakkur va nutq. Ong tuzilishining sistemligi. Fikrdan ma'noga, ma'nodan so'zga. Ichki so'z. A.R.Luriya modeli. Ifodaning dinamik sxemasi. Nutqning yaratilishidagi uch bosqich: 1.Semantik bosqich. Matnning temasi va remasi. 2. Ichki nutq. 3. Yoyiq nutqiy ifodalarning shakllanishi. A.A. Leontev modeli. Ifodaning grammatik-cemantik tomonlarini dasturlash. Ifodaning grammatik realizatsiyasi va so'z tanlash. Sintagmalarni motorli dasturlash. Matni qabul qilish (matni tushunish). Matn mazmuni chiqarib olish. Nutqiy yoki

jismoniy javob qaytarish. Murojaatni e'tiborga olib qo'yish. Xabar-1ni xabar-2 ga mos kelmasligi. Matnni yaratish va tushunishda samaradorlik, tejamkorlik va ishonchlilik tamoyillari. Tabiatdagi hayvonlar tili. Maugli bolalar. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati. Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalar nutqida protosemantik belgilarning shakllanishi. Bolalar nutqida semantik bosqich. Bolalarning so'z yasash malakasini egallashi. Bolalar nutqining shakllanishida kattalar nutqining ahamiyati. Bolalar nutqiy va intellektual faoliyatining shakllanishida ijtimoiylashishning asosiy jihatlaridan biri ekanligi. Bolalar nutqidagi xatoliklar. Eksperiment metodlar. Eksperiment turlari. Fonetika, semantika doirasidagi eksperimental ishlar. Assotsiatsiyaning paradigmatic va sintagmatic ko'rinishlari. Assotsiativ ekperiment va uning turlari. Erkin assotsiativ eksperiment. Yo'naltirilgan assotsiativ eksperiment. Zanjirli assotsiativ eksperiment. Assotsiativ me'yorlar lug'atlarining yaratilishi. So'zlar va so'z guruhlari ekperiment asosida o'rganish. Gap va matnning eksperimental tadqiqi. Psixolingvistikadagi transformatsion yo'nalish vakillarining perifriza ustida olib borgan tajribalari. Matn ma'noviy strukturasi tadqiq qilishda "tayanch so'zlar" majmui metodikasining afzalligi. Tergov jarayonida nutq informatsiya manbasi sifatida. Yolg'on fikr ifodalash psixolingvistikasi. Psixolingvistik ekspertiza. Matnning atributsiyasi. Til va madaniyat. So'zning milliy-madaniy xususiyatlari. Noverbal nutqning milliy-madaniy xususiyatlari. Lakunalar. Nutqiy muoamala. Bilingvizm va uning turlari. Chet tili o'rganishdagi xatoliklar. Xorijliklar nutqi. Madaniy shok. Lingvistik shok. Madaniyatlararo muloqot. Nutq patologiyasi va uning psixolingvistik usullar asosida o'rganilishi. Nutq patologiyasini asosiy ko'rinishlari. Afaziyaning o'rganilish tarixi. Afaziya va uning turlari. Total afaziya. Qisman afaziya. Motor afaziya. Sensor afaziya. Akustik afaziya. Semantik afaziya. Telegraf usuli. Alaliya va uning ko'rinishlari. Sensor alaliya. Motor alaliya. Sensomotor alaliya. Nutqning fiziologik markazlari. Broka markazi. Vernike zonasi. Shizofreniyada nutq tashkil qilishning xususiyatlari. Ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti va vazifalari. Lisoniy shaxs strukturasi. Olamning lisoniy manzarasi. Geshtaltlar va belgilar. Bilingvizmning mohiyati. Bilingvizm turlari. Interferensiya. "Lakuna" tushunchasi. Lakunalarning turlari. Ijtimoiy-madaniy lakunalar. Lakunalarni bartaraf qilish yo'llari.

LINGVOKULTUROLOGIYA

fani bo'yicha:

Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati va ularning yuzaga kelishi. Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari. Antroposentrik paradigma va uning lingvokulturologiyadagi o'rni. Til va inson, ularning o'zaro aloqasi. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya, ularning o'zaro aloqasi. Jamiyatda inson, til va madaniyatning o'rni. Madaniyat va uning o'rganilishi, jumladan, lingvokulturologiyaning vujudga kelishi. Frazologizmlarning lingvomadaniy jihatlari. O'xshatishlar – obrazli madaniy tafakkur mahsuli. Metafora – madaniyatning ko'rsatkichi. Ramz – inson ruhi madaniyatining tili.

Milliy madaniyatning stereotiplari. Lingvomadaniyatda lakuna muoammosi. Insoniy til va madaniyat. Til va etnos (inson)ning o`zaro aloqasi, nutq madaniyati masalalari. Madaniyatshunoslik va lingvokulturologiya tushunchalarining o`zaro aloqasi, ularning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari. Milliy mentalitet va lisoniy shaxs

MATN TILSHUNOSLIGI

fani bo'yicha:

Matn tilshunosligi fanining predmeti va tadqiqot obyekti, maqsad-vazifalari, nazariy-metodologik asoslari, manbalari. Matn va uning tilshunoslikda o`rganilish tarixi. Jahon tilshunosligida matn kategoriyasining o`rganilishi; Chex tilshunosligida, nemis, polyak matn lingvistikasi muammolari; Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo`lishi; Matn turlari va uni o`rganish muammolari. O`zbek tilshunosligida matn va uni o`rganish muammolari. Matn atamasi va uning mazmun ifodasi; matnning murakkabligi va hajmi, kommunikativ vazifasi, muayyan janr talablariga mosligi hamda matn qismlarining xarakteri masalalari haqida o`zbek tilshunoslarining qarashlari; o`zbek tilshunosligida matn nazariyasining kirib kelishi. Matn tilshunosligida nutq derivatsiyasi muammolarini o`rganish. Nutq va nutqiy faoliyat haqida F.de Sossyur ta`limoti. XX asrning 50-yillarida nutq lingvistikasiga e`tibor. V.Skalichka, E.Koseriunning fikrlari. Nutq derivatsiyasi va uning matnni shakllantirish masalasidagi nuqsonlar. Matn tarkibida so`z birikmasi sintaktik derivatsiya jarayonidagi o`rni. Matnda sintaktik aloqani ta`minlovchi leksik vositalar. Matn komponentlarining o`zaro sintaktik bog`lanishidagi omillar (leksik takror; sinonimik munosabat; olmoshlar; kirish so`z va birikmalar; bog`lovchilar). Matn komponentlarining semantik va pragmatik munosabatlari. Tilshunoslikda semantik munosabatlarning turi (radikal va to`g`ridan-to`g`ri munosabat). Til bilan mantiqning o`zaro bog`liqligi va A.A. Potebnyaning fikri. Matn va murakkab sintaktik qurilmaning o`zaro munosabati. Matn va uning tarkibiy qismlari. Gap, qo`shma gap, murakkab qurilmali gaplar, period, abzats tushunchalari. Matn birliklarini kengaytirish usullari. Matn tarkibidagi birliklarning bir-biriga munosabati. Matn tarkibida noodatiy birikmalarning grammatik strukturasi. So`z birikmalari va ularning turlari, undagi tobe-hokim bo`laklarning munosabati formasi; bu munosabat formasi nodatiy so`z birikmalarning shakllanish jarayoniga, ya`ni tobe-hokim bo`laklarning munosabati formasiga mos kelishi va farqlari; noodatiy birikmalarning grammatik jihatdan o`ziga xos xususiyatlari. Rus tilshunosi P.A.Lekantning nodatiy birikmalar ning haqidagi fikri. Matn komponentlarining pog`onali munosabati. Matn komponentlariaro semantik va grammatik munosabatlar. Matn komponentlarining pog`onali munosabati, matn komponentlari o`rtasidagi semantik va grammatik munosabatlarning turi va ularning yuzaga chiqishi. Matn tarkibida ichki va tashqi sintagmatik munosabatlar. Matn tarkibida funksional pragmatik munosabatlar. Matnda modallikning ifodalanishi. Matnda sintagmatik munosabatning namoyon bo`lishi, ichki va tashqi sintagmatik munosabat, matnning pragmatik xususiyatlari, matnda modallik yuzaga chiqishi. Matn va uslub munosabati. Matnning funksional

tasnifi masalalari. Matnning jonli soʻzlashuv uslubi-ga munosabati. Adabiy nutq uslublari va ularning matnga munosabati. Rasmiy, ilmiy, publisistik matnlar tuzish koʻnikmalarini shakllantirish masalalari. Olmoshlarning deydik xususiyatlari, gumon olmoshlarining semantik xususiyatlari, gumon olmoshlarining badiiy matndagi funksional-uslubiy xususiyatlari. Matnda jamlovchi olmoshlarning ayrim funksional-uslubiy xususiyatlari. Badiiy matn va uning shakllantiruvchi vositalar. Badiiy matnning koʻrinishlari, ularning umumiy va farqli belgilari, badiiy matnda individual soʻz qoʻllash meʼyorlari. Badiiy matnlarda laqablarning ayrim uslubiy xususiyatlari haqida. Badiiy matnda laqablarning qoʻllanilishi va bundagi maqsad, laqablarning funksional-uslubiy, pragmatik xususiyatlari, badiiy matnni tahlil va tahrir qilish muammolari. Oʻzbek tilining badiiy tasvir vositalari va ularning matn turlari tarkibidagi ishtiroki masalalari. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda meʼyor masalalari. Oʻzbek badiiy matnida metafora, epitet va oʻxshatish tasviriy vositalarining qoʻllanilishi. Matn tilshunosligida kognitiv va pragmatik imkoniyat-lardan foydalanish. Kognitiv, konsept, ssenariy, skript, freym, geshtalt, pragmatika” tushunchalarining maʼno-mohiyati va ularning matn bilan aloqadorligi.

NAZARIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

fani boʻyicha:

Nazariy tilshunoslik fani, uning predmeti, maqsad va vazifalari. Tilshunoslik sohasining nazariy mavzularini yoritish, fan doirasida oʻrganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, nazariy tilshunoslikning muhim xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lingvistik hodisalar, jarayonlar, til birliklari, til birliklarining tizim sifatidagi qurilishi haqida maʼlumot keltirish, til mohiyatini nazariy muammolar asosida tahlil qilish. Tilshunoslik fani taraqqiyoti tarixidan. Tilshunoslik fanining shakllanish bosqichlari, ilmiy faoliyat turi sifatida falsafa fanidan ajralib chiqqanligi, umumlingvistik muammolar, bu muammolarning tilshunoslik maktablarida oʻrganilishi haqida maʼlumot berish. Asosiy lingvistik konsepsiyalar. Tilshunoslikka oid turli nazariyalar, lingvistik konsepsiyalar, jumladan Vilgelem fon Gumboldt, Ferdinand de Sossur, Charl Balli, R.Yakobson, Yakob Grimm kabi olimlarning taʼlimotlari. Tilshunoslik va semiotika. Lingvistik belgilar va lingvistik belgi tuzilishi. Tabiiy, sunʼiy, shartli va infotmativ belgilar. Motivatsiya. Tilshunoslikning semiotikadagi oʻrni. Belgilar tasnifi. Til bilan boshqa belgilar tizimining oʻxshashlik va farqli jihatlari. Tilning belgisi va belgisiz xususiyatlari. Axborot va signal tushunchasi. Tilshunoslikning axborot nazariyasi bilan bogʻliqligi. Til strukturasi. Til strukturasi oʻrganilishi. Sutruktura va sistemaning bogʻliq jihatlari, biroq ularning bir hodisa emasligi, farqli tomonlari hamda bu haqida olimlarning fikrlari. Til tizimining sathlardan iborat boʻlishi. Oʻzaro bogʻliq va shartlangan ikki va undan ortiq elementning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega boʻlgan barqaror butunlikning tizim sanalishi. Til birliklari voqelanish belgisiga koʻra ham, ontologik (tuzilish) tabiatiga koʻra ham tizim ekanligi. Fonologiya. Fonema, tonema, aksentema va hk. Fonologiya maktablari. Fonologik tizim, fonologik oppozitsiyalar, fakultativ va individual variantlar, Boduen de Kurtene,

L.V.Shcherba, N.S.Trubeskoylarning fonologik qarashlari. Semasiologiya. Leksik ma'noning semantik tarkibi. Sema tushunchasi. So'z va leksemaning farqlanishi. Leksema semema va nomemalarning o'zaro munosabatidan tashkil topganligi, mazmuniy mundarijasi esa atash, ifoda va vazifaviy semalar munosabatidan iborat bo'lishi. Har qanday leksemada atash semasining albatta ishtirok etishi. Ifoda va vazifaviy semalar chegara semalar ekanligi. Morfosentrik nazariya. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. Morfologiyaning so'z shakllari haqidagi ta'limot ekanligi. So'z shaklning grammatik paradigma ichida qaralishi va zidlik munosabatida bo'lishi. Zidlanishlar paradigma a'zolarining yashash va rivojlanish asosi ekanligi. Morfologiyada morfema va uning varianti tushunchasi markaziy o'rinni egallashligi. Nazariy grammatika tizimida sintaksis. Gap va uning belgilari. Gapda shakl va mazmun. Gap bo'laklari iyerarxiyasi. Sintaktik sathning so'z birikmasi va gapdan iboratligi. Gap modelining so'z birikmasi modelidan farqlanishi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi. Gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilishning asosiy vositasi, muayyan tilning qonun-qoidalari asosida shakllangan sintaktik birligi ekanligi. Gap sintaksisning asosiy birligi sifatida. Gapning grammatik kategoriyalari. Gapning kommunikativ kategoriyasi. Aktual bo'linish. Til birliklari orasidagi paradigmatic, sintagmatic, iyerarxik munosabatlar. ketma-ket tartibda birikishdagi munosabatlar, kombinatorlik munosabatlari, assotsiativ yoki paradigmatic munosabatlar, birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyligi yoki o'xshashligi asosida muayyan guruhlarga bo'linishi, «yaxlitlik va bo'lak» o'rtasidagi munosabat. Bilish yo'llari. Bilishning dialektik metodi. Umumiy va xususiy bilish yo'llari. Ilmiy metodlarning paydo bo'lishi. Bilishning dialektik metodi. Umumiy va xususiy bilish yo'llari, paydo bo'lishi, fan tushunchasi, bilish bosqichlari, fahmiy billish va nazariy bilish. Fanlar tizimi va bu tizimda tilshunoslikning tutgan o'rni. Tilshunoslikning ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlarga munosabati. Lingvistik tahlil metodlari va bu metodlarning o'ziga xos jihatlari. Tavsifiy metod. Qiyosiy metod. Qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirma va tipologik metodlar. Zamonaviy tahlil metodlari. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi. Differensial tahlil metodi. Komponent tahlil metodi. Transformatsiyalash (aylantirish) metodi. Matematik tilshunoslik. Matematik metodlarni tilshunoslikka tatbiq etish. Statistik tahlil metodi.

“Hozirgi o'zbek tili”. Hozirgi o'zbek tili milliy o'zbek tilining muayyan sifatiy me'yorlarga ega bo'lgan, sayqallangan, yuqori bosqichda rivojlangan oliy shakli ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma shakllari. Uning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillarning roli. O'zbek tili lahja, dialekt va shevalari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari. Uning taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida yetakchi shevalarning ishtiroki. O'zbek xalqi va uning tilining shakllanish tarixi. O'zbek tilining tarixiy ildizlari va yodgorliklari. O'zbek tili tarixini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek adabiy tili (HO'AT) tushunchasi. HO'AT va shevalar munosabati. HO'AT ning o'rganilish tarixi, bosqichlari. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish haqida”gi Farmoni va uning

tarixiy ahamiyati. Til, lison, nutq munosabati. Til sathlari va birliklari. Borliq, ong, falsafada umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (qisq. UMIS) hamda yakkalik (alohidalik), hodisa, voqea, oqibat (natija) (qisq. YaHVO) kategoriyalarining til tizimida voqelanishi. Fonologiya – fonetika. Imlo va talaffuz. Tilning moddiy (substantsiya tomoni) sathi xususida. Fonetika uning mohiyati, tadqiq usullari va birliklari, vositalari. Fonologiya va uning mohiyati, tadqiq usullari. Fonema asosiy fonologik birlik sifatida. Fonema va tovush orasidagi munosabat. Fonema, uning UMIS sifatida zotiy tabiati, turlari. O'zbek fonetika va fonologiyasining tadqiqi va muammolari. Leksikologiya, semasiologiya va frazeologiya, leksikografiya. Morfemika va morfologiya. Morfema va uning tabiati, turlari, ifoda va mazmun tomonlari, boshqa lisoniy birliklar bilan munosabati. O'zak va qo'shimcha (affiks) morfemalar. Affiks morfemalarning funktsional tasnifi – so'z yasovchi (derivatsion), lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi (aloqa - munosabat) morfemalar. Shaxsiy (sub'ektiv) munosabat va baho ifodalovchi morfemalar. Ularning har birining zotiy tabiati va turlari. O'zbek morfemikasi va morfologiyasining tadqiqiy muammolari. Derivatsiya (so'z yasalishi) va uning til qurilishi tizimidagi o'rni. So'z yasash mohiyati va usullari. O'zbek tilshunosligida derivatsiyani o'rganish muammolari. Grammatika tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, o'rganish ob'ekti. Grammatika va milliylik, milliy mafkura. Morfologiya va sintaksisining o'zaro munosabati. Morfologiya. Morfologik shakl, uning yasalish usullari (sintaktik va analitik). Morfologik kategoriya shakllar paradigmasi sifatida. So'z turkumlari grammatik kategoriya sifatida, so'zlarni mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, so'z gaplar kabi to'plamlarga ajratish tamoyillari. Fe'llarning tasniflovchi kategoriyalari (lug'aviy shakllari). Fe'l nisbatlari paradigmasi. Nisbatlarning so'z yasalishi va so'z o'zgartirishga munosabati. Orttirma, birgalik, majhul va o'zlik nisbatlari. Aniq nisbat haqida. Fe'l turlari paradigmasi. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari va kesimlik shakllari. Sifatdosh va ravishdoshlarning ichki paradigmasi, uning zamon-tarz ma'nolari asosida qurilishi. Sifatdosh va ravishdosh shakllarining ma'no va vazifalari. Harakat nomi shakllari ichki paradigmasi, ma'no va vazifalari. Harakat tarzi analitik shakllarning yasalishi va ma'nolari, paradigmasi. Ot. Son paradigmasi. Kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat shakllari Otlarning atoqli, turdosh, muayyan va mavhum ma'no turlari, o'zaro munosabatlari. O'zbek onomastik leksikasining asosiy turlari, onomastik indikatorlar. Mavhum otlar va ularning asosiy turlari, yasalish xususiyatlari. Otlarning gapdagi sintaktik vazifalari. Sifat. Asliy va nisbiy sifatlar, asliy sifatning daraja, kuchaytirma va ozaytirma shakllari. Sifatning ma'noviy guruhlari va sifatlar yasalishining umumiy qoliplari. Sifatning sintaktik vazifalari. Son. Sanoq, tartib, chama, jamlovchi, kasr (ulush) sonlarining hosil qilinishi va ma'nolari. Numerativ (o'lchov) so'zlari, otlarni numerativ so'z sifatida voqelantiruvchi qoliplar (sanoq son+hajm, makon, zamon, miqdor v.h. otlari + sanalmish) (bir shahar odam). Sonlarning sintaktik vazifalari. Ravish. Ma'noviy va grammatik (o'zgarmaslik) belgisi. Ravishlarning ma'noviy turlari va ularning so'z yasash qoliplari. Ravishlarning sintaktik vazifalari. Taqlid so'zlar. Olmosh. Olmoshlarning morfologik xususiyatlari. Olmoshlarning ma'noviy va vazifaviy guruhlari, yasalish xususiyatlari. Olmoshlarning matn hosil qilishdagi o'ziga xos

o'ni. So'zlarning sintaktik shakllari So'zlarning sintaktik (aloqa - munosabat) shakllarining shaklan, morfologik va vazifa jihatdan sintaktik tabiati. Sintaktik shakllarning tarkibi va ichki bo'linishi: a) so'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi kategoriyalar (kelishik, egalik); b) so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilovchi kategoriya (kesimlik kategoriyasi). Sintaktik shakllarga munosabat jihatidan so'zlarni o'zgaradigan (sifatdosh, harakat nomi, fe'lining kesimlik shakli, ot, sifat, son, taqlid, olmosh) va o'zgarmas (ravish, ravishdosh, yordamchi so'zlar, so'z-gaplar) kabi guruhlarga ajratish. Egalik kategoriyasi. Egalik shakllarining yasaliş, ma'noviy va sintaktik vazifasi, so'z birikmasi hosil qilishda ahamiyati. Egalik qo'shimchalarining so'zlarning turli ma'noviy guruhlari turli xildagi ma'no va vazifalari. Egalik qo'shimchalarining soddalanishi. Kelishik kategoriyasi. Kelishik qo'shimchalarining soddalanishi. Mayl shakllari. Buyruq mayli shakllarining fe'l-kesim va ot (ism)-kesimlarda yasaliş (tuslanishi) va ma'nolari. Buyruq mayli UGMsi va uning nutqiy voqelanishi. Buyruq mayli shakllarida zamon va modallik ma'nolarining in'ikosi. Zamon shakllari va harakat tarzi shakllari orasidagi munosabatlar. Yordamchi so'zlar, ularning leksik va grammatik tizimlardagi o'ni, affiksial morfemalarga munosabati. Yordamchi so'zlarning tarkibi, ma'noviy va vazifaviy xususiyatlari. Yordamchi so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra turlari. Ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi. Ko'makchilarning turlari: qo'shimchasimon ko'makchilar, sof ko'makchilar, yarim ko'makchilar. Ko'makchilar va kelishik qo'shimchalar orasida munosabat. Ko'makchi – bog'lovchilar, ko'makchi – yuklamalar. Ko'makchilar sirasining boyib borishi. Bog'lovchilarning ma'nosi va vazifasi. Bog'lovchilar shakliy va vazifaviy turlari. Qo'shimchasimon, sof va yarim bog'lovchilar. Yakka va juft, teng va tobe bog'lovchilar. Bog'lovchi-ko'makchi va bog'lovchi – yuklamalar. Bog'lovchilar sirasining boyib borishi. Yuklamalarning ma'nosi va vazifasi, ularning shakliy va vazifaviy turlari. Qo'shimchasimon yuklamalar, sof yuklamalar, yarim yuklamalar. Yuklamalar va modal so'zlar orasidagi munosabat. So'z-gaplar to'plamini ajratish tamoyillari. So'z-gaplarning manoviy guruhlari, bu guruhlarda o'rtasida o'zaro munosabat. So'z-gaplar va ularning tasnifi. Modallar, undovlar, tasdiq/inkor va taklif/ ishora so'zlari, ularning ma'no va vazifasiga ko'ra turlari, tavsifi, boshqa so'z turkumlari bilan aloqalari. Sintaksis Sintaksis va uning tadqiq manbai. Sintaksisning morfologiya va leksika bilan aloqalari. Lisoniy sintaktik qolip (LSK) sintaksisning asosiy tadqiq birligi sifatida. Sintaktik UGMlar va ularning nutqda voqelanishi. Valentlik. Leksema va grammatik shakl valentligi so'zlarning nutqda o'zaro aloqalarga kirish omili sifatida. Lisoniy sintaktik qolip (LSK), uni ajratish yo'llari. LSKning UGMsi, shakliy va mazmuniy tomonlari. So'zlarning so'z birikmalarida (SB) bog'lanish (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) usullari. SBning nominativ tabiati. Hokim so'z va tobe so'z. So'z kengaytiruvchilari tushunchasi. SBda aloqalarning ikki tamonlamaligi. Hokimlik belgilari. Tobelik belgilari. SBlarda ma'noviy (M), shakliy (Sh) va joylashuv (J) omillarining o'zaro hamkorligi va munosibligi, SBlarining mantiqiy-riyoziy turlari jadvali. SB LSK larida variantlik, UGM va XGM masalalari. SB LSKlarining asosiy ko'rinishlari va ularning nutqiy voqelanishi. LSKlarni o'qish va yozish qoidalari. Turg'un SB va frazemalarning sintaktik bo'linishi masalasi. Gap

kommunikativ nutqiy birlik sifatida. Nutqiy gapning belgilari. Sodda gapda shakl va mazmun munosabati. Shakl va mazmun o'rtasida munosabatlik va nomunosabatlik. Gapning minimal LSQi, uning leksik- morfologik aniqlanishi. Kesim– gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning mustaqil va nomustaqil shakllari, ularning sintaktik vazifalari, grammatik ifodalanish usullari. Ot (ism)-kesim, uning nutqiy ifodalanishi. Bog'lama, uning ko'rinishlari. Ot (ism) – kesimning so'z, so'z birikmasi, frazema, kengaygan birikma bilan ifodalanishi. Fe'l – kesim va uning xususiyatlari. Ega, uning gap qurilishidagi o'rni, egalik va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi. Hollar, ularning gap qurilishida o'rni, ma'noviy turlari, ifodalanishi. To'ldiruvchilar, ularning gap qurilishi so'z kengaytiruvchisi sifatida o'rni, ifodalanishi. To'ldiruvchilar turlari. Aniqlovchilar, ularning gap qurilishda so'z kengaytiruvchisi sifatida o'rni va ifodalanishi. Aniqlovchilarning turlari. Nutqiy gap tarkibida so'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruv-chilarning munosabati. Gapda ajratilgan izoh bo'laklar. Kirish va kiritmalarning gapning lisoniy va nutqiy ko'rinishlaridagi o'rni. Gap bo'laklarining uyushish hodisasi. Ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi, izohlovchi undalma, ajratilgan bo'laklar, kiritmalarning uyushish qonuni-yatlari va hodisalari. Kesimning uyushishi masalasi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari. Darak, so'roq, buyruq gaplar. Gapda so'zlar tartibi. Gapning aktual bo'linishi. Nutqiy gaplarning emotsionallikka ko'ra turlari. His-hayajon gaplar. O'zbek tilshunosligida sodda gap qurilishi tadqiqi muammolari. Qo'shma gaplarning ajratilish tamoyillari. Sodda gaplarga munosabati. Qo'shma gapning serqirraligi va turli jihatlardan tasnifi masalalari. Qo'shma gaplarning qurilish qoliplariga ko'ra, bog'lovchi vositalariga ko'ra, nutqiy qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning tarkibi, qurilishi, ifoda maqsadiga ko'ra, nutqiy qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro semantik-funksional munosabatlariga ko'ra xilma-xil tasniflari. Bu tasniflarning maqsadlari va natijalari. Qo'shma gaplarning semantik-funksional tasnifi. Qo'shma va tarkibi qismlari orasida nutqiy voqelanishda ma'noviy-sintaktik munosabatlar. Hokim va tobe gap. Tobe gaplarning hokim gap bo'laklariga munosabati. Kesim tobe gapli qo'shma gaplar. Ega tobe gapli qo'shma gaplar. Hol tobe gapli qo'shma gaplar. To'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi tobe gapli qo'shma gaplar. Ko'chirma gapli qurilmalarning gap lisoniy tizimida o'rni. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilari. O'zbek tilshunosligida nutq sintaksisining tadqiqi muammolari.

Til tarixi. Til tarixi kursi turli davrlarda yaratilgan yozma yodgorliklarni ilmiy-nazariy jihatdan tushuntirishda qadimgi turkiy til(VII-X), eski turkiy til(XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tilining(XV-XIX) taraqqiyot bosqichlarida sodir bo'lgan fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik, sintaktik hodisalarni diqqat markazida tutadi.

Qadimgi turkiy til, eski turkiy til davrida yaratilgan yodgorliklar, xususan, XI-XIV asrlar O'rta Osiyo va Oltin O'rda adabiy muhiti yodgorliklarining eski o'zbek adabiy tiliga munosabati masalalari qiyosiy aspektda izohlanadi, tushuntiriladi. Qadimgi turkiy tilning davrlari; eramizgacha, eramizning I-V va VI-X asrlardagi ijtimoiy-madaniy hayot. Bu davr haqidagi qarashlar. Oltoy tillari oilasi haqida tushuncha. Turk va mo'g'ul tillarining alohida ajralib chiqishi. Turkiy

tillar tarixida xun davri. Qadimgi turk davrining vujudga kelishi. Qadimgi turkiy-run bitiklari va uyg'ur yozuvi yodnomalari. Bu yodgorliklarning turkiy xalqlarga xos ekanligi. Tosh bitiklarning topilishi. Run yozuvi yodgorliklari yuzasidan dastlabki tadqiqotlar va u bilan bog'liq ilmiy-tarixiy ma'lumotlar. O'rxun-Enasoy bitiklarining kashf etilishi, maxsus tadqiq qilinishi. Talas bitiklarining topilishi va o'rganilishi. Tosh bitiklarning O'rxun-Enasoy, dulbarjin kabi nomlar bilan atalish sabablari. O'rxun-Enasoy yozuvi haqida tarixiy ma'lumotlar. O'rxun-Enasoy yozuvi alifbosi, uning yozilish qoidasi. Uyg'ur yozuvi tarixi haqida nazariy ma'lumot. Bu yozuv bitiklari muayyan qismining qadimgi turkiy til davriga oid emasligi. Uyg'ur yozuvi yodgorliklarining X asrdan keyin ham mavjudligi, ya'ni ularning XVII asrga qadar qo'llanishda qolganligi, uyg'ur yozuvi haqidagi ilmiy-tarixiy ma'lumotlar; uyg'ur yozuvining "turk yozuvi" deb nomlanish sabablari; uyg'ur yozuvi yodgorliklari; uyg'ur yozuvi alifbosi; shakllari, yozilish tartibi. O'zbek tilining XII asrdan keyingi taraqqiyoti. qarluq-xorazm adabiy tili, uning yozma yodgorliklari. Oltin O'rda adabiy muhiti va uning obidalari. Chig'atoy ulusi adabiy tili manbalari va ularning til xususiyatlari. O'zbek tilining XIV asr oxiri–XVII asrgacha bo'lgan taraqqiyoti. Eski o'zbek adabiy tilining shakllanishi va qaror topishida Navoiygacha ijod qilgan turkiygo'y shoirlar asarlarining til xususiyatlari. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilinig asoschisi. Alisher Navoiyning ona tili rivojiga qo'shgan buyuk xizmatlari. Shoir asarlari tilida leksik va grammatik me'yorlarning belgilanishi. Navoiy asarlarida turkiy til va boshqa tillar boyligidan foydalanishning uslubiy xususiyatlari. Navoiy nazmiy, nasriy va maktubotlarining tili va uslubi. "Muhokamatul-lug'atayn" va uning o'zbek tili taraqqiyotida tutgan o'rni. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini o'rganishda Bobur asarlarining ahamiyati. Tarixiy dostonchilikda til va uslub masalasi.

Tilshunoslik nazariyasi. Tilning jamiyatdagi o'rni, til va jamiyat o'rtasidagi munosabat, tilning jamiyatdagi ko'rinishlari: me'yorlashtirilgan va mahalliy tillar, kreol va pinyin tillari. Til va tafakkur munosabati, til birliklarining tafakkur birliklari bilan o'zaro munosabati. Tilshunoslik fani bo'limlari, til sathlari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik. Til birliklarining mazmun mohiyati. Tilshunoslikka oid tushunchalarni ifodalovchi faol terminlarning mazmun mohiyati. Tilshunoslikning qadimgi asrlarda shakllanishi. O'rta asrlarda Yevropa va Sharq tilshunosligining yuzaga chiqishi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi. Umumiy tilshunoslik faniga asos solinishi. "Yosh grammatikachilar» maktabining lingvistik qarashlari. F.deSossyur ta'limoti va strukturalizm. Praga lingvistik maktabi dunyoqarashi. Neolingvistikaning shakllanishi. Glossematika maktabi ta'limoti. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi. Jahon tilshunosligi tarixi va o'zbek tilshunosligi. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy boqichlari. qadimgi asrlarda tilshunoslik. qadimgi hind, grek, lotin va xitoy tilshunosligi. Panini tadqiqotlari. Aleksandriya grammatika maktabi (Dionisiy). Qadimgi Rim tilshunosligi (Varron). Qadimgi Xitoy lug'atlari (Fan'yan). Qadimgi tilshunoslik va bugungi kun muammolari. O'rta asrlarda tilshunoslik. Arab tilshunosligi tarixidan. Mahmud Koshg'ariy va uning lisoniy qarashlari. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari. O'rta asr tilshunosligi va bugungi kun muammolari. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos

solishi. Tilshunoslik maktablari. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati. Umumiy (universal) grammatika maktabi. Praga lingvistik maktabi (funktsionalizm). Kopengagen maktabi: L. Yel'mslev, X. Uldall. Me'yorning inkor etilishi, uzus va nutq faoliyati (akti)ning absolyutlashtirilishi. Neolingvistika. Bonfante, Bartoli, Pizani. Til va jamiyat. Tilning ijtimoiy tabiati. Muloqot ehtiyoji va til. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi. Yozuv va savodxonlik muammolari. Me'yor masalasi. Tilning ijtimoiy differentsiatsiyasi. Og'zaki va yozma nutq. Adabiy til. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'siri. Sotsiolingvistikaning bugungi masalalari. Sotsiolingvistika. Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Til va ong. Til va tafakkur. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida. Fikrning shakllanishida tilning roli. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati. Til va tafakkur bog'liqligi.

Tafakkur va terminologiya. Terminologiya tushunchaviy yukka ega ifoda. Lisoniy did. Psixolingvistika. Reklama tili. Til va mafkura. Til siyosati. Tilning semiotik tabiati. Semiotika nima? Ijtimoiy informatsiyaning moddiy tashuvchilari haqida ma'lumot. Tilga belgi sifatida yondashuvning F. de Sossyur ta'limotida shakllanishi. Lisoniy belgi tushuncha va moddiy talaffuz birligi sifatida. Til sathlari. Tilning fonetik-fonologik sathi. Lug'at sathi. Grammatik sath. Til birliklarning alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibliigi. Til birliklari va nutq birliklari. Til umumiy, nutq xususiy hodisa sifatida. Nutqiy imkoniyatlar. Nutq faoliyati, og'zaki va yozma nutq. Psixologik tilshunoslik nutq faoliyati va so'zlash jarayonini o'rganuvchi soha sifatida. Til-tafakkur-nutq munosabati. Grammatika. Grammatika kategoriyalar. Grammatikaga oid zamonaviy ta'limotlar. Semantika. Semantik kategoriyalar. Tillarning tipologik tasnifi. Til tiplari haqida ma'lumot. Til tiplarining asosiy belgilari. Morfologik shakllarining xilma-xilligi. Tillarning morfologik tipologiyasi. Morfologik tasnif. Izolyativ (ajratuvchi) tillar. Inkorporativ (polisintetik) tillar. Geneologik tasnif. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi munosabat.

O'zbek dialektologiyasi. Dialekt va adabiy til. Umumxalq tili, adabiy til va mahalliy dialektlar. Dialektlar, ularning paydo bo'lishi, dialektlarni qabila tarixiga bog'lab o'rganish. O'zbek adabiy tilining dialektal asosi. Adabiy tilning jonli xalq tili hisobiga boyishi. Adabiy tilning shevalarga munosabati va ularning ta'siri. Dialektologiya fanining xalq tarixi, til tarixi, xalq og'zaki ijodiyoti, joy nomlari, antroponimlar, etnografiya va nomshunoslik masalalarini o'rganish; matbuotdagi har xil yozishlarning oldini olishda; orfografiya, orfoepiya, atamashunoslik masalalarini hal qilish; maktablarda ona tili o'qitishda va o'qituvchilar nutqida uchraydigan sheva xususiyatlarini bartaraf etishdagi ahamiyati. «Davlat tili haqida» va «Ta'lim to'g'risidagi» qonunlarning ijrosida dialektologiya fanining o'rni. Transkripsiya. Transkripsiya turlari. Xalqaro fonetik alfavit (MFA). Turkiy tillar va lahjalarni o'rganishda rus turkologlari tomonidan qo'llanilgan transkripsion belgilar. O'zbek shevalarini o'rganishda qo'llanilgan transkripsiyalar. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi transkripsiyaga xos xususiyatlar. O'zbek shevalarin tasniflash. O'zbek shevalarini tasniflashda yetakchi tamoyillar: hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy, lisoniy-hududiy (lingvoareal). O'zbek shevalari tasnifi (I. I. Zarubin, Ye. D. Polivanov,

G'ozim Olim Yunusov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov tasniflari). Ularning yutuq va kamchiliklari. Shevalar fonetikasi. O'zbek shevalarining fonetik tomondan farqlanadigan belgilari: ye-lanish, je-lanish, o-lanish va a-lashish. Unli fonemalar. Singarmonizm, uning o'zbek shevalarida uchrashi. Shevalarda undosh fonemalar va fonetik hodisalar talqini. Shevalar leksikasi va leksikografiyasi. O'zbek shevalarining adabiy tildan farqqiladigan ba'zi xarakterli lug'aviy xususiyatlari. Shevalarda ayrim so'z, so'z shakllari va atamalarni adabiy tilga olib kirish masalasi. Shevalarda antonim, omonim, sinonim, ko'p ma'noli, eskirgan, tarixiy so'zlar va neologizmlarning o'ziga xosligi. Dialektal frazeologiya hamda uning shevalararo qo'llanishi. Shevalarda onomastik birliklar. O'zbek shevashunosligida leksikografiya va uning muammolari. Shevalar morfologiyasi. Shevalarda ot va unga xos xususiyatlar. Shevalarda sifat hamda uning xususiyatlari. O'zbek shevalarida son va uning turlari. O'zbek shevalarida numerativlar. Shevalarda fe'l hamda uning xususiyatlari. Shevalarda ravish va uning turlari. Shevalarda ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar. Modal so'zlar, undov hamda taqlid so'zlarning shevalardagi ko'rinishlari. Shevalar sintaksisi. Sintaksis va shevalar sintaksisi. Dialektal so'z birikmasi. Dialektal sodda gaplar. Gap bo'laklari va ularning dialektal xususiyatlari. Shevalarda qo'shma gap, o'zga gap va dialog.

Lingvistik geografiya. O'zbek dialektologik atlasini tuzish va uning xususiyatlari. O'zbek shevalari tizimining ikki xil tashkili: Struktur hamda zonal. O'zbek tilining qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari: tarqalishi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari hamda adabiy tilga munosabati. O'zbek shevalarining atlaslarini tuzishtamoyillari. Xorijdagi o'zbeklar nutqi: qo'shni mamlakatlardagi va juda uzoqlikda joylashgan mamlakatlardagi o'zbeklar nutqi. Lingvistik geografiya va geografik lingvistika.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.М.Мирзиёев. Олий Мажлисга Мурожаатнома, Тошкент, 2020 йил 24 январ.
2. Ш.М.Мирзиёев “Буюк келадимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз”.- Тошкент: - “ Ўзбекистон”, 2017 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
Жигарев А.Н., Макарова Н.В., Путинцева М.А. Основы компьютерной грамоты. - Л., "Машиностроение", 1987. -255с.
1. Элементы Информатики / Под редакцией Л.Н. Королёва. - М., "Наука",1988. -318с.
2. Абрамов С.А., Зима Е.В. Начало информатики. - М., "Наука", 1989. -256с.
3. Фролов Г.Д., Кузнецов Э.И. Элементы информатики. - М., 1989
4. Есян А.Р. и др. Информатика. - М., "Просвещение", 1991. -288с.
5. Касаткин В.Н. Информация. Алгоритмы. ЭВМ. - М., "Просвещение", 1991.
6. Фуломов С.С. ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. – Т.: Шарқ, 2000.
7. Симонич С.В. и другие. Общая информатика. Учебное пособие. –М.: Издательство «АСТПресс», 2001.
8. Островский В.А. Информатика. Учеб.пос. – М.: «Высшая школа», 1999.
9. М. Арипов. Интернет ва электрон почта асослари. Т., Университет, 2000.
10. Аюпов Р.Х. Шахсий компьютерда ишлаш. MS Word матн муҳаррири. –Т.: ТМИ, 2002, 124 бет.
11. Аюпов Р.Х., Илхомова Е. Компьютер тармоқлари ва Интернет тизими.– Т.: ТМИ, 2002.
12. Насреддинова Ш. Excel 7.0 да жадвал ҳисоблагичлар. – Т.: ТМИ, 2002.
13. Сагман Стив. MS Power Point 7.0. для Windows.- Санкт-Петербург, Издательство «Питер», 1997.
14. Марахимова А.Р., Рахмонқулова С. Интернет ва ундан фойдаланиш. –Т.: ТДТИ, 2001, 176 бет.
15. Симонич С.В. и другие. Специальная информатика. Учебное пособие. – М.: Издательство «АСТПресс», 2001.
16. Информатика: Учебник. -3-е перераб. Изд Под ред. Проф. Н.В.Макаровой. –М.Финансы и статистика, 1999, -768 с.ил.
17. Вычислительные комплексы, системы и сети. Ф.М.Ларионов, С.А.Майоров, Г.И.Новиков: Учебник для вузов, Л: Энергоатомиздат Ленингр. Отд. 1987. 288 с. Ил.
18. Н. Тайлоқов, А. Ахмедов. IBM-PC компьютери. Тошкент. Ўзбекистон.
19. А.Ахмедов, Н. Тайлоқов Информатика. «Ўқитувчи» Тошкент 2002.
20. Т.А. Нурмухамедов IBM PC ва MS DOS Билан танишув. Тошкент «Мехнат» 1994.

21. Д.Карп Хитрости Windows XP для профессионалов –СПб: Питер, 2003.- 714 с: ил.
22. Бобцов А.А. , Лямин А.В., Чежин М.С., Компьютерные сети и интернет. – СПб СПГИТМО, 2001, -92 с.
23. Задков и др. Компьютер в эксперименте. М. Наука 1987.
24. Ortiqov A.. IBM PC kompyutyeridan foydalanish. Toshkyent, Qomus, 1992.
25. М.Арипов, А.Хайдаров “Информатика асослари” ўқув кўлланма Тошкент Ўқитувчи 2002 йил.
26. У.Ю.Юлдашев, Р.Р.Боқиев, Ф.М.Зокирова “ИНФОРМАТИКА” дарслик “Ғ.Ғулом” нашриёти Тошкент 2002 йил.
27. Гуломов С. Ахборот тизимлари ва технологиялари.–Т.: «Шарқ», 2000 й.
28. Орипов М., Ҳайдаров А.. Информатика асослари.–Т.: «Ўқитувчи», 2002 й.
29. Абдуқодиров А., Ҳайтов А., Рашидов Р. Ахборот технологиялари.- Т.: «Ўқитувчи», 2002 й.
30. Муртазин Э.В. Internet. Учебник.- Москва, 2002 г.
31. Қодиров Т., Эрназаров А. Компьютерда ишлашни ўрганамиз. Методик кўлланма. -А.Авлоний номидаги ХТХҚТМОМИ, 2006 й.
32. Симонович СВ., Евсеев Г.А., Мураховский В.И. WINDOWS: лаборатория мастера: Практическое руководство по эффективным приемам работы с компьютером - М.: АСТ-ПРЕСС: Информком-Пресс, 2000. - 656 с.
33. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. -Т.: Фан, 2007.-182 б.
34. Марахимов А.Р., Рахмонкулова С.И. Интернет ва ундан фойдаланиш асослари.- Тошкент, 2001 йил.
35. Персональный компьютер: настройка и техническая поддержка: Майкрософт. Учебное пособие. – М.:БИНОМ. Лаборатория знаний, 2006.
36. Усманов А. Замонавий ахборот технологиялари.- Т.: “Академия”, 2007 йил.-154 бет.
37. Учебные проекты с использованием Microsoft Office: Учебное пособие. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2006

**САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ ТАЯНЧ
ДОКТОРАНТУРА ИХТИСОСЛИКЛАРИГА КИРИШ СИНОВЛАРИ
УЧУН МАХСУС ФАНЛАРДАН ДАЪВОГАРЛАРНИНГ
БИЛИМЛАРИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНИ**

Синов топшириш шакли	Ёзма
Ажратилган вақт	120 дақиқа
Саволлар сони	5
Ҳар бир савол учун белгиланган балл	20
Максимал балл	100
Ўтиш бали	55